



ENG QADIMGI DAVRLARDA PEDAGOGIK MAXORATLI O'QITUVCHI, MURABBIY VA SHOGIRD MASALALARI HAQIDA

Abdullayeva Dilorom Nomonovna.

Qo'qon DU katta o'qituvchi.

Latipova Dinora Abdusattor qizi.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 404-guruh talabasi

Mazkur maqolada Eng qadimgi davrlarda pedagogik maxoratli o'qituvchi, murabbiy va shogird masalalari haqida uning rivojlanishi, yillar davomida shakllanib borishi ustoz va shogird faoliyatiga bog'liqligi yoritilgan. Maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun ularning ta'lim-tarbiya usullari yillar davomida hayot tajribasi va sinovlaridan o'tib, sayqallanib o'sha davrning olijanob mevasi sifatida bizning davrimizgacha etib kelganliklari masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, eng qadimgi davrlar, o'qituvchi, kasbiy faoliyat, dars ustoz shogird.

Ta'lim va tarbiya tarixini o'rganar ekanmiz, uning rivojlanishi, yillar davomida shakllanib borishi ustoz va shogird faoliyatiga bog'liqligining guvohi bo'lamiz. Eng qadimgi davrlardayoq mudarrislar (o'qituvchilar) ta'lim va tarbiyaning samarali ta'sir usullarini qidirib topib, hayotga tatbiq eta boshlaganlar. Buning natijasida eramizdan oldingi davrlardayoq ta'lim-tarbiyaning samaradorligiga erishilishi uchun o'qituvchiga bo'lgan talablar kuchayib bordi. O'qituvchi mahoratini takomillashtirish yuzasidan turli g'oyalar, nazariya va tavsiyalar paydo bo'la boshladi. Miloddan avvalgi VII – VI asrlarda O'rta Osiyoda ishlab chiqarish kuchlarining ortib borishi bilan ijtimoiy hayotda ham ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Turk va fors tilida so'zlashuvchi xalqlar o'rtasida o'zaro madaniy aloqalar yuzaga keldi. Yosh avlodni mustaqil hayotga tayyorlashda asrlar davomida qo'llanib kelingan, yerli millatning o'ziga xos urf – odati va an'alariga mos ravishda tatbiq etilgan ta'lim va tarbiyaning noyob usul va vositalari, tadbir va shakllari vujudga kela boshladi. Hali maktab bo'lmagan, pedagogik fikr tarkib topmagan davrdayoq qabila a'zolari bolalarda mehnatsevarlik, axloq-odob, nafosat, do'stlik, mehrshafqat, insonparvarlik sifatlarini tarkib toptirish sohasida aql idrok bilan faoliyat olib borishgan. Ularning ta'lim-tarbiya usullari yillar davomida hayot tajribasi va sinovlaridan o'tib, sayqallanib o'sha davrning olijanob mevasi sifatida bizning davrimizgacha etib keldi.

VII asrlarga kelib O'rta Osiyoda ilm-fan va madaniyat sohasidagi rivojlanish bevosita ta'lim va tarbiya beruvchi mudarrislarining qizg'in faoliyati hamda ularga qo'yiladigan talablarning nihoyatda rang-barangligi va xilma-xilligi bilan diqqatga sazovordir. Ilk ibtidoiy jamoa va quldorlik davrlaridan boshlab, bolalarning ta'lim va tarbiyasiga javobgar ulamolar hamda mudarrislar nasihat, tushuntirish, rag'batlantirish, maqtash, namuna ko'rsatish, tanbeh berish, ta'qiqlash, majbur qilish, po'pisa qilish, qo'rqitish kabi usullardan foydalanganlar. Biroq mudarrislarining o'zi bolaga ta'lim-tarbiya berish uchun mukammal amaliy va

nazariy bilimga ega bo‘lishi kerak edi. Shu sababli mudarrislar savodli madrasa toliblari orasidan tanlangan va ma‘lum muddat tayyorgarlikdan o‘tishgan.

Markaziy Osiyoning Xorazm zaminida shakllangan eng qadimiy va “o‘tmishdagi dinlarning eng kuchlilaridan bo‘lgan” (Yu.A.Rappoport) zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da bolalar ta‘lim tarbiyasiga oid qiziqarli ma‘lumotlar berilgan. “Avesto”da ta‘kidlanadiki, bilim va tarbiya hayotning eng muhim tirgagi bo‘lib hisoblanadi. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yozishni o‘rganish asosida bilim olishi kerak, so‘ngra esa odob-axloqi bilan eng yuksak pog‘onaga ko‘tarilsin. Kohin muallimlari oqsoqollar Kengashi tomonidan tanlanib, qat‘iy belgilangan qoidalar asosida yoshlarga ta‘lim va tarbiya berishgan.

“Avesto”da bolalarni o‘qitish va tarbiyalash qoidalari quyidagi tartibda tavsiya etilgan: a) diniy va axloqiy tarbiya; b) jismoniy tarbiya; v) o‘qish va yozishga o‘rgatish. Maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan muallimlar bolalarni yetti yoshidan boshlab, diniy tarbiyaga asoslangan maktablarga jalb qilishgan. Maktablarda “muqaddas yashil ko‘ylak” kiydirish marosimi o‘tkazilgach, kohin muallimlar bolalarni “Avesto”da keltirilgan madadkor kuchlarni ulug‘lovchi ezgulik va yaxshilik ma‘budasiga sig‘intirishgan. Duolar quyidagi so‘zlar bilan boshlangan: “Men zardushtiylik diniga sodiq qolishga va‘da beraman, men yaxshi fikrlar, yaxshi so‘zlar, yaxshi amallarga ishonaman...”. Marosimdan so‘ng muallimlar bolalarga sovg‘alar ulashishgan. Muallimlar mashg‘ulotlar jarayonida bolalarga nisbatan jismoniy jazodan ko‘ra ko‘proq o‘z diniga ishonch va e‘tiqodni, dunyodagi barcha yaxshilik va ezguliklarning bunyodkori, ilohiy Axuramazdaga sig‘inishni, odamlar boshiga yovuzlik va yomonliklarni yog‘diruvchi Axrimandan esa nafratlanish hissini tarbiyalar edilar.

Bolalarning sog‘lom va baquvvat bo‘lib o‘sishi bilan birga o‘z dinining barcha rasm rusumlarini to‘liq bajarishiga, o‘rganilayotgan fanlarni puxta bilishiga, axloqiy pokligiga, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, saxovatlilik kabi fazilatlarni egallashiga kohin muallimlari javobgar edilar. “Avesto”da er, suv va havo muqaddas deb e‘lon qilinib, muhitni iflos qilgan va uni asrash qoidalarini buzgan kishi 400 qamchi urish bilan jazolanardi. Tabiatni asrash, uni obod qilish yoshlik davrlaridanoq ular ongiga singdirilgan. Zardushtiylik dini ta‘limotida ilgari surilgan umuminsoniy qadriyatlar majmuasi ezgulik va yaxshilik, jaholat va yomonlik, ta‘lim va tarbiya haqidagi g‘oyalari bilan ulkan pedagogik ta‘sir kuchiga ega bo‘lgan. Bunda tarbiyachi muallimlarning o‘z kasbiga sadoqatini alohida ta‘kidlab o‘tish lozim. Zardushtiylik dinida imon uchta tayanchga asoslanadi: fikrning sofliigi, so‘zning sobitligi, amallarning insoniyligi. Muallimlar ta‘lim va tarbiyada yoshlar ongiga “bergan so‘zning uddasidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo–sotiq va shartnomalarga qat‘iy amal qilish, qarzni o‘z vaqtida to‘lash, aldamchilik va xiyonatdan xoli bo‘lish, halol mehnat, yaratuvchilik, yovuzlikni qalbdan chiqarib tashlash, imon– e‘tiqodli bo‘lish, miskinlarga yordam berish, yaxshi niyat, yaxshi so‘z va yaxshi amallarga qo‘l urish” kabi insoniy tuyg‘ularni singdirish uchun qizg‘in mehnat qilganlar.

Xulosa qilib shuni aytamanki, tarbiyachi muallimlarning o‘z kasbiga sadoqatli bo‘lishi lozim. “Avesto”da ta‘kidlanadiki, bilim va tarbiya hayotning eng muhim

tirgagi bo‘lib hisoblanadi. Har bir bola uchun ta‘lim tarbiyani o‘rni beqiyos hisoblanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2018 yil 14 avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son.Prezident qarori.

2. . B.Xodjayev-Umumiy pedagogika nazariyasi va adabiyoti. Toshkent 2017 yil, “Sano-standart” nashriyoti

3. A.Xoliqov-“Pedagogik mahorat”. Toshkent 2011 yil, “Iqtisod-moliya”.

4. Nurmatova, Madina. "History Of Origin And Social And Pedagogical Need Of Tutor's Activity." *International Bulletin of Applied Science and Technology* 3 (2023): 151-154.

5. Nurmatova, Madina Odiljon Qizi. "IS'XOQXON IBRATNING ILM VA MA'RIFAT SOXASIDAGI XIZMATLARI." *Academic research in educational sciences* 3.NUU Conference 2 (2022): 419-422.

6. НУРМАТОВА, МАДИНА ОДИЛЖОН КИЗИ. "Психолого-педагогические особенности детей старшего дошкольного возраста." *Молодежь и XXI век-2015*. 2015.

7. Нурматова, Мадина. "УЧИТЕЛЬ-РУКОВОДИТЕЛЬ ВОСПИТАНИЯ." *Актуальные научные исследования в современном мире* 8-2 (2018): 58-60.

8. Мадина, Нурматова. "ПРОИЗВЕДЕНИЕ" ОДОБ АС-САЛИХИН" *НАСТОЛЬНАЯ КНИГА С ВЕЖЛИВОСТИ И ПРАВИЛ ПОВЕДЕНИЯ.* *Актуальные научные исследования в современном мире* 5-6 (2018): 53-55.